



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

RAQAMLI DAVRDA ALFA AVLOD VAKILLARINING INTELLEKTUAL VA KASBIY RIVOJLANISH MASALALARI

Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich

O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi direktor
o‘rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Odiljonov O‘tkirjon Rustamjonovich

O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo‘limi
boshlig‘i, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli muhitda shakllanayotgan alfa avlod vakillarini ta’lim jarayonida erta kasb-hunarga yo‘naltirish hamda ularning intellektual rivojlanishini ta’minlash masalalari qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan yondashuvning cheklangan jihatlari ochib beriladi. Xususan, mehnat bozorining tez o‘zgarishi natijasida kasblar mazmuni va talablari o‘zgarib borishi bilan bog‘liq xavflar asoslanadi. Shu bilan birga, tanqidiy va kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarda moslashuvchan qaror qabul qilish, raqamli savodxonlik kabi intellektual kompetensiyalarni rivojlantirish alfa avlodining uzoq muddatli kasbiy muvaffaqiyati uchun muhim omil ekani ilmiy dalillar asosida ko‘rsatib beriladi. Maqolada kasb-hunarga yo‘naltirish va intellektual rivojlanishni o‘zaro qarama-qarshi emas, balki uyg‘un va uzviy jarayon sifatida tashkil etish zarurligi xulosalanadi hamda ta’lim tizimi uchun amaliy-metodik tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar. Alfa avlod, kasb-hunarga yo‘naltirish, intellektual rivojlanish, taqqoslovchi yondashuv, raqamli kompetensiyalar, kreativ va tanqidiy fikrlash, ta’lim strategiyasi, mehnat bozori transformatsiyasi.

ПРОБЛЕМЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО И ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ПОКОЛЕНИЯ АЛЬФА В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ

Курбаниязов Шахзодбек Каримович

заместитель директора Республиканского научно-методического центра развития
образования Республики Узбекистан, доктор экономических наук (DSc)

Одилжонов Ўткиржон Рустамжонович

начальник отдела Республиканского научно-методического центра развития
образования Республики Узбекистан, независимый исследователь

Аннотация.

В статье на основе сравнительного подхода анализируются вопросы ранней профессиональной ориентации представителей поколения Альфа, формирующихся в цифровой среде, а также обеспечения их интеллектуального развития в образовательном процессе. В исследовании раскрываются ограниченные стороны подхода, ориентированного преимущественно на формирование профессиональных навыков. В частности, обосновываются риски, связанные с изменением содержания профессий и требований к ним в результате быстрого изменения рынка труда. Вместе с тем на основе научных данных показано, что развитие интеллектуальных компетенций — таких как критическое и креативное мышление, гибкое принятие решений в проблемных ситуациях, цифровая грамотность — является важным фактором долгосрочного профессионального успеха поколения Альфа. Делается вывод о необходимости организации профессиональной ориентации и интеллектуального развития не как взаимно противоположных, а как согласованных и взаимосвязанных процессов; предлагаются практико-методические рекомендации для системы образования.

Ключевые слова: поколение Альфа, профессиональная ориентация, интеллектуальное развитие, сравнительный подход, цифровые компетенции, креативное и критическое мышление, образовательная стратегия, трансформация рынка труда.

ISSUES OF INTELLECTUAL AND PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF GENERATION ALPHA IN THE DIGITAL ERA

Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich

Deputy Director, Republican Scientific and Methodological Center for Education Development
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Economic Sciences (DSc)

Odiljonov O'tkirjon Rustamjonovich

Head of Department, Republican Scientific and Methodological Center for Education
Development of the Republic of Uzbekistan, Independent Researcher

Abstract. This article, based on a comparative approach, analyzes the issues of early vocational guidance for Generation Alpha, who are being shaped in a digital environment, as well as ensuring their intellectual development within the educational process. The study reveals the limitations of an approach that focuses primarily on developing vocational skills. In particular, it substantiates risks related to the changing content of occupations and shifting job requirements due to rapid transformations in the labor market. At the same time, drawing on academic evidence, the article demonstrates that developing intellectual competencies—such as critical and creative thinking, flexible decision-making in problem situations, and digital literacy—is a key factor for Generation Alpha's long-term professional success. The paper concludes that vocational guidance and intellectual development should be organized not as opposing goals but as integrated and mutually reinforcing processes, and it offers practical and methodological recommendations for the education system.

Keywords: Generation Alpha, vocational guidance, intellectual development, comparative approach, digital competencies, creative and critical thinking, education strategy, labor market transformation.

Kirish

XXI asr - raqamli transformatsiya asri. Inson faoliyati va ijtimoiy tizimlarning deyarli barcha sohalari sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data), avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar ta'sirida jadal o'zgarmoqda. Ta'lim tizimi ham bu jarayondan chetda qolmayapti. An'anaviy pedagogik yondashuvlar o'rnini raqamli kompetensiyalar, moslashuvchan o'qitish va individual rivojlanishga yo'naltirilgan ta'lim modellari egallamoqda. Davlat strategiyalari va xalqaro hamkorlik dasturlari doirasida O'zbekistonda raqamli ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga, o'quvchilarning kognitiv salohiyati bilan birga raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Jumladan, pedagoglar uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan milliy modul dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Bu tashabbus o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, YUNESKOning Hayot davomida ta'lim instituti tomonidan 2025-yil 11–13-mart kunlari Toshkent shahrida Birinchi milliy kontekstualizatsiya seminari tashkil etildi. Ushbu tadbir O'zbekistonda texnik va kasbiy ta'lim (TVET) o'qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan DELTA dasturi doirasida amalga oshirildi. Mazkur seminar ta'lim sohasida raqamli transformatsiya bo'yicha milliy ustuvor yo'nalishlarga mos, mahalliy sharoitga moslashtirilgan o'quv dasturini ishlab chiqishda muhim bosqich sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekistonda yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish va ularni

mehnat bozorining raqamli talablariga moslashtirish maqsadida soʻnggi yillarda tizimli va keng koʻlamli davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, “One Million Uzbek Coders” tashabbusi doirasida minglab yoshlar dasturlash, axborot texnologiyalari, veb-ilovalar yaratish va raqamli platformalar bilan ishlash boʻyicha bepul taʼlim olish imkoniyatiga ega boʻldi. UNESCO tomonidan Oʻzbekiston tajribasi asosida oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, bunday dasturlar yoshlarda nafaqat aniq kasbiy koʻnikmalarni, balki algoritmik fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va kreativ yondashuv kabi intellektual kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Shu bilan birga, tahlillar faqat kasb-hunarga yoʻnaltirishga asoslangan yondashuv tez oʻzgarayotgan raqamli mehnat bozori sharoitida barqaror natija bermasligini koʻrsatmoqda. Kasbiy tayyorgarlik intellektual rivojlanish bilan uygʻunlashgandagina yoshlarning moslashuvchanligi, qayta kasb egallash salohiyati va uzoq muddatli bandligi taʼminlanadi.

Oʻzbekiston tajribasi shuni koʻrsatadiki, raqamli taʼlim loyihalari orqali shakllanayotgan yoshlar aniq bir kasb bilan cheklanib qolmaydi. Ular yangi texnologiyalarni tez oʻzlashtiradi, kasbiy yoʻnalishini oʻzgartirishga tayyor boʻladi va innovatsion gʻoyalarga oson moslashadi. Demak, alfa avlod vakillarini tayyorlash jarayonida intellektual rivojlanish kasb-hunarga yoʻnaltirishdan ustun emas. U kasbiy yoʻnaltirishni mazmunan toʻldiruvchi va uning samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida namoyon boʻlmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotning dolzarbligi quyidagi savol bilan belgilanadi: faqat kasbiy koʻnikmalarni shakllantirish yetarlimi yoki oʻquvchilarning intellektual salohiyatini keng qamrovli rivojlantirish raqamli davrda hal qiluvchi ahamiyatga egami?

Oʻzbekiston tajribasi shuni koʻrsatadiki, milliy taʼlim siyosatlari raqamli va kognitiv kompetensiyalarni uygʻunlashtirishga qaratilgan. Bu yondashuv yosh avlodni nafaqat zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashni, balki ularda tanqidiy fikrlash, kreativlik va tahliliy salohiyatni shakllantirishni ham koʻzda tutadi. Mazkur maqolada aynan shu muammo chuqur tahlil qilinadi. Oʻzbekiston tajribasi misolida intellektual va kasbiy rivojlanish yoʻnalishlarini uygʻun holda tashkil etishning ahamiyati asoslab beriladi.

Intellektni rivojlantirish yoʻnalishi	Kasb-hunarga yoʻnaltirish yoʻnalishi
	Amaliy hayotga yoʻnaltiradi

Asosiy qism.

Raqamli texnologiyalar, sunʼiy intellekt (AI) va avtomatlashtirish mehnat bozorida tub oʻzgarishlarni boshladi. “World Economic Forum” tomonidan eʼlon qilingan “Future of Jobs Report 2025” hisobotiga koʻra, 2030-yilga kelib jahon miqyosida taxminan 92 million ish oʻrni sunʼiy intellekt va avtomatlashtirish taʼsirida yoʻqoladi. Bu kasblar toʻliq yoki qisman avtomatlashtirilib, inson mehnatining oʻrni texnologiyalar bilan almashtiriladi. Shu bilan birga, ushbu jarayon natijasida 170 millionga yaqin yangi ish oʻrni paydo boʻlishi kutilmoqda. Natijada global mehnat bozorida taxminan 78 millionta sof yangi ish oʻrni yaratiladi. Bu raqamlar raqamli transformatsiya natijasida yuzaga kelayotgan eng yirik tarkibiy oʻzgarishlardan biri ekanini koʻrsatadi. Ular mehnat bozorida faqat kasblar roʻyxati emas, balki ish mazmuni, talab etiladigan koʻnikmalar va inson kapitaliga qoʻyiladigan talablar ham tubdan oʻzgarayotganini anglatadi. Ushbu statistik tendensiya alfa avlod vakillarini kelajak mehnat bozoriga tayyorlashda ikki asosiy muammoni yaqqol namoyon qiladi.

Kasb-hunarga yoʻnaltirish sohasidagi boʻshliqlar.

Bugungi kunda anʼanaviy kasb-hunar yoʻnalishlariga asoslangan taʼlim modeli yoshlarni kelajak mehnat bozorining tez oʻzgarib borayotgan raqamli va texnologik talablariga toʻliq

moslashtirib bera olmayapti. Bu holat yildan-yilga kuchayib bormoqda. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, avtomatlashtirish xavfi eng yuqori bo'lgan kasblar asosan takroriy va past kognitiv murakkablikka ega faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, bunday vazifalarning taxminan 40–60 foizi yaqin yillarda sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali bajarilishi mumkin.

Avtomatlashtirish xavfi yuqori bo'lgan asosiy kasblar quyidagilardan iborat:

ma'lumot kiritish operatorlari, hujjatlarni raqamlashtirish va qayta ishlash xodimlari, oddiy statistik hisobot tayyorlovchilar;

kotiblar, yordamchi administratorlar, jadval tuzish va hujjat aylanmasi bilan shug'ullanuvchi xodimlar, standart skript asosida ishlovchi call-markaz operatorlari;

birlamchi buxgalteriya hisobini yurituvchilar, hisob-kitob va faktura tayyorlovchilar, soliq hujjatlarini texnik rasmiylashtiruvchilar;

konveyer operatorlari, ombor hisobchilari, qadoqlash va saralash ishlari bilan shug'ullanuvchilar;

kassirlar, buyurtma qabul qiluvchi operatorlar, chipta sotish va ro'yxatdan o'tkazish xodimlari.

Bu holat faqat an'anaviy kasb-hunar ta'limi bilan yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini pasaytirish xavfini keskin oshiradi. Shuning uchun ta'lim tizimida kasbiy yo'naltirishni intellektual, tahliliy va moslashuvchan ko'nikmalarni rivojlantirish bilan uyg'un holda tashkil etish zarurati yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Aksincha, yangi shakllanayotgan ish o'rinlari yuqori darajadagi tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, raqamli texnologiyalar bilan ishlash va moslashuvchan intellektual salohiyatni talab qilmoqda. Statistik tahlillarga ko'ra, kelajak kasblarining 70 foizdan ortig'i kamida asosiy raqamli savodxonlik, texnologik tafakkur hamda kreativ muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishni taqozo etadi.

Demak, ta'limni faqat mavjud kasb-hunar yo'nalishlariga tayangan holda tashkil etish alfa avlod vakillarini kelajak mehnat bozoriga to'liq integratsiya qilish uchun yetarli emas. Bu holat ta'lim jarayonida kasbiy tayyorgarlikni intellektual rivojlanish bilan uyg'unlashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, kasb-hunarga yo'naltirishdagi asosiy muammo yoshlarni faqat bitta aniq kasbga tor doirada tayyorlash bilan bog'liq. Bu esa ularning fikrlashda moslashuvchan bo'lishini va kerak bo'lganda yangi kasbni tez o'zlashtirish imkoniyatini cheklaydi. Statistik prognozlar shuni ko'rsatadiki, agar kasbiy tayyorgarlik intellektual va raqamli ko'nikmalar bilan to'ldirilmasa, u uzoq muddatli ish bilan ta'minlash uchun yetarli bo'lmaydi. Barqaror mehnat faoliyati uchun yoshlarda keng fikrlash, moslashish va qayta o'qish qobiliyati shakllanishi zarur.

Intellektual kompetensiyalarning yetishmasligi. Yangi ish o'rinlari ko'pincha texnologik bilimlar, tahliliy fikrlash, kreativ yondashuv, muammoli vaziyatlarni hal qilish va raqamli savodxonlikni talab qiladi. Bu esa yoshlarni tayyorlashda faqat an'anaviy kasbiy ko'nikmalar bilan cheklanish yetarli emasligini ko'rsatadi. Ularida yuqori darajadagi intellektual kompetensiyalarni shakllantirish ham zarur.

Ma'lumotlarga ko'ra, kompaniyalarning taxminan 55 foizi sun'iy intellektdan faol foydalanmoqda. Qolgan 45 foizi esa uni joriy etish imkoniyatlarini o'rganish bosqichida turibdi (AI statistikasi, 2025). Sun'iy intellekt kompaniyalarga xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, oqilona qarorlar qabul qilish va ish o'rinlarini qayta tashkil etish imkonini bermoqda. Shu sababli u turli sohalarida tez sur'atlarda joriy etilmoqda.

Ish beruvchi kompaniyalarning 77 foizi sun'iy intellektdan foydalanadi yoki uning imkoniyatlarini faol o'rganmoqda. 83 foizi esa sun'iy intellektni o'z rivojlanish rejalarida ustuvor yo'nalish deb hisoblaydi (Mikrosourcing). Bozor hajmi 2025–2030-yillar oralig'ida taxminan 36,6 foizga o'sishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkichlar sun'iy intellekt innovatsiya va iqtisodiy o'sishning

asosiy omillaridan biriga aylanib borayotganini ko'rsatadi.

Bugun sun'iy intellekt fantastik g'oya emas. U kundalik hayot va biznesning ajralmas qismiga aylanmoqda. Har 10 ta kompaniyadan qariyb 8 tasi allaqachon sun'iy intellektidan foydalanyapti yoki uni joriy etish ustida ish olib bormoqda. 80 foizdan ortig'i esa uni eng muhim strategik vazifa sifatida baholamoqda.

Natijada, zamonaviy mehnat bozorida yuz berayotgan ikki tomonlama o'zgarish - ayrim an'anaviy kasblarning qisqarishi va yo'qolishi, shu bilan birga yangi, texnologiyaga asoslangan kasblarning paydo bo'lishi - ta'lim tizimi oldiga muhim muammolarni qo'ymoqda. Bu o'zgarishlar faqat kasbga yo'naltirish yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqishni talab etmaydi. Ular, ayni paytda, alfa avlod vakillarining intellektual salohiyatini rivojlantirish va turli vaziyatlarga moslasha oladigan bilim bazasini shakllantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Ushbu muammoni samarali hal etish uchun quyidagi yechimlar dolzarb hisoblanadi.

Intellektual va texnologik kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirish:
ta'lim jarayoni faqat kasbga yo'naltirish bilan cheklanmasligi;
kreativ fikrlash, tanqidiy tahlil, raqamli savodxonlik, sun'iy intellekt va big data bilan ishlashni rivojlantiruvchi o'quv modullari joriy etilishi;
bu ko'nikmalar yoshlarni yangi kasblarga tez moslashishga tayyorlashi lozim.
Reskilling va upskilling dasturlarini kengaytirish;
mehnat bozori tez o'zgarayotgani uchun doimiy o'qish va qayta tayyorlash tizimlari kerak;

yoshlar va amalda ishlayotgan kadrlar uchun onlayn va oflayn qayta tayyorlash platformalari ishlab chiqilishi zarur;

2030-yilga kelib bugungi ko'nikmalarning katta qismi ahamiyatini yo'qotadi.

Jahon tahlillariga ko'ra, 2030-yilga borib global ishchi kuchining 59 foizi qayta malaka oshirishga muhtoj bo'ladi.

Shuningdek:

170 million yangi ish o'rni yaratiladi;

92 million ish o'rni yo'qoladi;

hozirgi asosiy ko'nikmalarning 39 foizi eskiradi.

Bu raqamlar shundan dalolat beradiki, sun'iy intellekt oddiy texnologiya emas. U iqtisodiyot va mehnat bozorini tubdan o'zgartirayotgan kuchdir.

Siz yoshlarni faqat bitta kasbga tayyorlasangiz, ular tez ortda qoladi.

Siz ularni fikrlashga, o'rganishga va moslashishga o'rgatsangiz, ular kelajakka tayyor bo'ladi:

sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar;

texnik savodxonlik;

ijodiy fikrlash;

chidamlilik va chaqqonlik;

analitik fikrlash;

rahbarlik va ijtimoiy ta'sir;

motivatsiya va o'zini anglash;

tizimli fikrlash;

iste'dodlarni boshqarish;

qiziqish va umrbod o'rganish.

Andreas Xorn ta'kidlaganidek: "Malaka oshirish endi imtiyoz emas balki siz yo kelajakni qurasiz yoki uning sizdan o'zib ketishini kuzatasiz". Xo'sh, qaerdan boshlaysiz? Bugun sun'iy intellektni o'rganish, uning qanday ishlashini tushunish, o'z sohangizda tajriba o'tkazishingiz kerak. Ortida qolmasdan oldin u tomonga ya'ni uning oldinga boring. Sun'iy intellekt davri kutib

turmaydi va eng moslashuvchanlari gullab-yashnaydi.

Davlat, ta'lim tashkilotlari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish: bu hamkorlik orqali mehnat bozorining real ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash tizimi yaratilib, yoshlarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga moslashuvi ta'minlanadi.

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida barcha kasblar bir xil darajada qisqarish xavfiga ega emas. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori kognitiv murakkablik, ijodkorlik, ijtimoiy-emotsional intellekt va kontekstual qaror qabul qilishni talab etadigan kasblar avtomatlashtirishga nisbatan ancha chidamli hisoblanadi. Ushbu kasblar kelajak mehnat bozorida barqaror talabga ega bo'lishi kutilmoqda va yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralishi lozim.

1. Yuqori intellektual va tahliliy kasblar:

ma'lumotlar tahlilchisi (Data Analyst, Data Scientist);

sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish mutaxassisi;

kiberxavfsizlik mutaxassisi;

raqamli tizimlar arxitektori

Ushbu kasblar murakkab muammolarni tahlil qilish, model yaratish va kreativ yechimlarni talab etgani sababli avtomatlashtirishga chidamli hisoblanadi.

2. Ijodiy va kreativ soha kasblari:

dizaynerlar (UX/UI, grafik, sanoat dizayni);

kontent yaratuvchilar (media, video, raqamli mahsulotlar);

marketing strateglari va brend menejerlari;

o'yin dizaynerlari.

Kreativlik va estetik qarorlar sun'iy intellekt tomonidan to'liq takrorlanishi qiyin bo'lgan jihatlariga ega.

3. Insoniy muloqot va ijtimoiy kompetensiyalarga asoslangan kasblar:

pedagoglar va ta'lim dizaynerlari;

psixologlar va pedagog-psixologlar, maxsus pedagoglar, logopedlar;

ijtimoiy xodimlar;

kadrlar boshqaruvi (HR) mutaxassislari

Empatiya, hissiy tushunish va tarbiyaviy ta'sir sun'iy intellekt uchun cheklangan sohalardan biridir.

4. Murakkab qaror va mas'uliyat talab qiluvchi kasblar:

shifokorlar (ayniqsa diagnostika va rehabilitatsiya yo'nalishlari);

hamshiralar va parvarish mutaxassislari;

huquqshunoslar (analitik va maslahat berish yo'nalishlari);

davlat boshqaruvi va siyosiy tahlil mutaxassislari.

Bu kasblarda texnologiyalar yordamchi rol o'ynaydi, biroq yakuniy qaror inson zimmasida qoladi.

5. Texnologiya va inson faoliyati uyg'unlashgan kasblar:

robototexnika muhandislari;

avtomatlashtirilgan tizimlar operatorlari;

aqlli ishlab chiqarish (Industry 4.0) mutaxassislari;

texnik xizmat va tizim integratsiyasi muhandislari;

Bu kasblar avtomatlashtirish jarayonlarini boshqarish va rivojlantirishga xizmat qiladi, shu sababli ular avtomatlashtirishga qarshi emas, balki u bilan birga rivojlanadi.

Kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida yoshlarni faqat hozirgi mehnat bozorida mavjud kasblarga emas, balki avtomatlashtirishga chidamli, moslashuvchan va intellektual salohiyat talab qiluvchi kasblarga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Alfa avlod vakillari uchun bunday kasblar tanlovi nafaqat qisqa muddatli bandlikni, balki uzoq muddatli kasbiy barqarorlikni ham

ta'minlaydi. Shu sababli, kasb-hunar ta'limi tizimida intellektual rivojlanish, kreativ fikrlash va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish kasbga yo'naltirishning ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning jadal rivojlanishi global mehnat bozorida chuqur strukturaviy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kelgusi yillarda an'anaviy, takroriy va past kognitiv murakkablikka ega kasblarning qisqarishi bilan bir qatorda, yuqori intellektual salohiyat, raqamli savodxonlik va moslashuvchan fikrlashni talab etuvchi yangi kasblarga ehtiyoj ortib boradi. Ushbu jarayon alfa avlod vakillarini tayyorlashda mavjud kasb-hunar ta'limi yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Maqolada olib borilgan tahlillar shuni asoslab berdiki, faqatgina kasb-hunarga yo'naltirishga tayanilgan ta'lim modeli raqamli davr talablariga to'liq javob bera olmaydi. Aksincha, kasbiy tayyorgarlik intellektual rivojlanish - tanqidiy va kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, raqamli va texnologik kompetensiyalar bilan uyg'unlashgandagina yoshlarning kelajak mehnat bozorida barqaror va raqobatbardosh bo'lishi ta'minlanadi. O'zbekiston tajribasi, xususan "One Million Uzbek Coders" kabi dasturlar, intellektual va kasbiy rivojlanishni integratsiyalashgan holda tashkil etish samarali natija berishini ko'rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, alfa avlod vakillarini tayyorlash jarayonida ta'lim tizimining asosiy vazifasi yoshlarni faqat mavjud kasblarga moslashtirish emas, balki ularning intellektual moslashuvchanligi, umrbod o'rganish salohiyati va qayta kasb egallash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, raqamli davr sharoitida intellektual rivojlanish va kasb-hunarga yo'naltirish bir-biriga qarama-qarshi jarayonlar emas, balki o'zaro uzviy bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi strategik yo'nalishlar sifatida qaralishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2023. Geneva;
2. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. Geneva;
3. McKinsey Global Institute. Jobs Lost, Jobs Gained: Workforce Transitions in a Time of Automation;
4. OECD. The Risk of Automation for Jobs in OECD Countries. OECD Publishing;
5. Forbes (2025). 92 Million Jobs Gone: Who Will AI Erase First?;
6. Goldman Sachs (2023). The Potentially Large Effects of Artificial Intelligence on Economic Growth;
7. ICT Skills Development in the Republic of Uzbekistan. — Paris: UNESCO;
8. UNESCO Institute for Lifelong Learning (UIL). Digital Competencies for TVET Educators: Uzbekistan Case.
9. Mikrosourcing. AI Adoption Statistics and Workforce Transformation, 2024–2025.